

## “8-SINF ADABIYOT DARSLARIDA ARUZ VAZNINI O‘RGATISH”

*Mavzusidagi Metodik Tavsiyasi*

*Toshkent Viloyati*

*Yangiyo`l Tumani Maktabgacha Va Maktab Ta`Limi*

*Bo`Limiga Qarashli 44-Umumiy O`Rta Ta`Lim*

*Maktabining Ona Tili Va Adabiyot Fani O`Qituvchisi*

**Umarova Maloxat Abduvosiqovnaning**

**Annotatsiya:** Aruz vaznining asosini hijolarning sifati tashkil etadi. Shunga ko‘ra, aruz tizimidagi she’rlarda hijo dastlabki o‘lchov birligi sanaladi. Aruz she’riy o‘lchov tizimi misralarda qisqa va cho‘ziq hijolarning muayyan tartibda guruhlanib takrorlanishiga asoslanadi. Demak, aruz vaznida hijolar goh cho‘ziq, goh qisqa talaffuz qilinadi. Aksariyat hollarda „o“ tovushidan boshqa unlilar bilan tugallanuvchi hijolar qisqa, barcha undosh tovushlar va „o“ bilan tugallanuvchi hijolar cho‘ziq hijo bo‘lib keladi. Tarkibida cho‘ziq unli bo‘lgan (zor, yor, shod kabi), shuningdek, qo‘sh undosh bilan tugallangan (mehr, xalq, ilm kabi) yopiq hijolar o‘ta cho‘ziq hijo hisoblanadi. Aruz ilmiga doir adabiyotlarda qisqa hijo „V“ shaklida, cho‘ziq hijo "— " va o‘ta cho‘ziq hijo esa " ~ " shaklida belgilangan. Hijolarning cho‘ziq va qisqaligi she’riy misralarning yozilishiga qarab emas, balki vazniga muvofiq, o‘qilishiga qarab aniqlanadi.

### Kirish.

Aruz turkiy adabiyotda IX asrlardan islom dininig kirib kelishi bilan paydo bo‘lgan. Aruz so‘zi «chodirni ushlab turuvchi o‘rtasiga qo‘yilgan yog‘och», «bulut», «sarkash tuya» degan ma’nolarni anglatadi degan ma’lumotlar uchraydi. Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon» asarida arab qabilalaridan biri yashovchi vodiy nomini bildirishi aytiladi, lekin atama sifatida kelib chiqishi aruz vazni ilmi asoschisi Xalil ibn Ahmad yashagan voha nomi bilan bog‘liq. VIII asrda ko‘chmanchi arablar sarkash

tuyalarini tezlashtirish maqsadida turli qo'shiqlar kuylashgan. Keyinchalik ushbu qo'shiqlar asosida arab adabiyoti otasi Xalil ibn Ahmad (milodiy 790 – 791- yilda tug'ilgan) tomonidan aruz vazni yaratilgan.<sup>1</sup> Aruz vazni arab adabiyotidan fors adabiyotiga, keyinchalik XI asrda fors adabiyotidan turkiy she'riyatga ko'chdi. Aruz, ayniqsa, o'zbek mumtoz adabiyotida (X – XII asrlar) yetakchilik qildi. «Ilmi aruz» Alisher Navoiy («Mezon ul-avzon»), Mirzo Bobur («Muxtasar») tomonidan ham o'rghanildi. Ular turkiy she'riyatdagi aruzning nazariy asoslarini, qonun va qoidalari ishlab chiqdilar<sup>2</sup>. Hozirgi zamon o'zbek «aruziyari» – A. Fitrat ham, I. Sulton ham, U. To'ychiyev ham, A. Hojiahmedov ham, A. Abdurahmonov ham aruzni o'rganishga, o'rgatishga katta kuch sarf etdilar.

### **Aruz vaznining maktabtablarda o'rgatilish metodikasi**

Ma'lumki, klassik adabiyotimizdagi g'azallar ming yillar davomida adabiyotimizning butun kuch-qudratini, tilimizning tarovatini ko'rsatadigan lirikaning yorqin namunasi bo'lib kelgan. Shu bois adabiy merosimiz bo'lgan g'azallarni o'rganish, bu g'azallar bitilgan aruz vaznini o'rganish va yosh avlodga o'rgatish biz adabiyot o'qituvchilari oldida turgan muhim bir masala hisoblanadi. O'rta ta'lim maktablarida adabiyot fanidan aruz vazni haqida bilimlar bosqichma-bosqich berib boriladi. Ilk ma'lumotlar 5-sinfda beriladi. Mazkur sinfda «Adabiyot - so'z san'ati» mavzusida adabiy turlar haqida nazariy ma'lumotlar tushuntirilar ekan, lirika haqida hamda she'riy tizimdagi vaznlar haqida dastlabki bilimlar beriladi. Mirtemir she'rlari o'tilganda o'quvchilarga barmoq vazni, erkin vazn hamda aruz vazni haqida tushunchalar yetkaziladi. Psixologlarning fikricha, IV-VI sinf o'quvchilari VII-VIII sinf o'quvchilariga qaraganda lirik asarlarni tushunishga va o'qishga moyilroq bo'lar ekan. V-VI sinf o'quvchilari she'rni yaxshi tushunishlari va his qilishlari uchun she'rni ifodali o'qishni bilishi darkor. Buning uchun esa misra, turoq haqida nazariy tushunchalarga ega bo'lishlari zarur.

---

<sup>1</sup> Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: Ta'llim-Media, 2019.

<sup>2</sup> . Yusupova D. Aruz alifbosi. – T.: Akademnashr, 2015.

Har bir sinfda aruzga oid bilimlar izchillik bilan soddadan murakkabga qarab kengaytirilib boriladi. VII sinf adabiyot darsligida Uvaysiy, Zavqiy g‘azallari berilgan. Dars jarayonida «Uvaysiyman», «Sog‘indim», «Ajab ermas» g‘azallari tahlil qilinari ekan, bu g‘azallar aruz vaznida bitilganligi, undagi qofiyadosh so‘zlar, qofiyaning mutlaq va muqayyad kabi turlari, radif, raviy haqida ma’lumotlar beriladi.

Aruz vazni haqidagi batafsil ma’lumotlar asosan 8-sinfda Lutfiy g‘azallari o‘tilganda beriladi. Mavzu o‘quvchilarga tushuntirilar ekan bu vaznning paydo bo‘lishi haqidagi ma’lumotlar ham o‘quvchiga qiziq.

### **Aruz vazni haqida ma’lumot**

Aruz ilmiga doir adabiyotlarda qisqa hijo „V“ shaklida, cho‘ziq hijo " — " va o‘ta cho‘ziq hijo esa " ~ " shaklida belgilangan. Hijolarning cho‘ziq va qisqaligi she’riy misralarning yozilishiga qarab emas, balki vazniga muvofiq, o‘qilishiga qarab aniqlanadi. Masalan, quyidagi bayt misolida hijolar sifatini aniqlab ko‘ramiz:

Jahon shoirlari, ey gulshani bog‘, Kimi bulbuldurur so‘zda, kimi zog‘.

Ja-hon-sho-ir / la-ri ey-gul / sha-ni-bog‘ V — - - V — - - V — ~ Ma-fo-iy-lun, ma-fo-iy-lun, ma-fo-iy-l

Ki-mi-bul-bul / du-rur-so‘z-da / ki-mi-zog‘ V — - - V — - - V — ~ Ma-fo-iy-lun, ma-fo-iy-lun, ma-fo-iy-l

Ba’zi hollarda vazn talabiga ko‘ra, qisqa hijolarning cho‘ziq hijoga yoki cho‘ziq hijoning qisqa hijoga o‘zgarishi ham mumkin. Bu aruzda imola deb nomlanadi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, imola hodisasiga ko‘ra a unlisi bilan tugagan ochiq bo‘g‘inlar so‘z o‘rtasida qisqa, so‘z oxirida esa, cho‘ziq va qisqa bo‘lib kelishi mumkin. Shuningdek, qolgan boshqa unli tovushlar bilan bitgan ochiq hijolar ham qisqa yoki cho‘ziq bo‘lishi mumkin. Aruz tizimi, eng avvalo, hijolarning sifatiga asoslanganligi uchun bu tizimga xos juda ko‘p murakkabliklar va o‘ziga xosliklar mavjud. Vazn

taqozosiga ko‘ra, ayrim so‘zlar odatdagidan boshqacharoq tarzda o‘qiladi. Masalan, ikki hijoli so‘zlar uch-to‘rt hijoli shaklida o‘qilishi ham mumkin:

Of-tob so‘zi o-f-to-b, pod-shoh so‘zi po-d-sho-h, Iz-hor so‘zi iz-ho-r, mash-hur so‘zi ma-sh-hur kabi.

Aruzdagi she’rlarni ifodali o‘qishning nozik jihatlaridan biri misralardagi o‘ta cho‘ziq hijolarni to‘g‘ri talaffuz qilishdir. Badiiy so‘z ustalari ham, adabiyot o‘qituvchilari ham, ko‘pincha shunday hijolarni o‘qishda xatoga yo‘l qo‘yadilar. Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, o‘ta cho‘ziq hijolar yo tarkibida cho‘ziq unli bo‘lgan yopiq hijodan, yo qo‘sh undosh bilan tugallangan yopiq hijodan tashkil topadi. Tarkibida cho‘ziq unli kelgan yopiq hijo shaklidagi o‘ta cho‘ziq hijoning unlisi ancha cho‘zib talaffuz qilinishi shart. Masalan, Boburning Yoz fasli, „Yor vasli, do‘srlarning suhbati, She’r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati“, — baytidagi „yoz“, „yor“ hijolari o‘ta cho‘ziq bo‘lgani uchun ularning unlilari cho‘zib talaffuz etiladi. Aruz tizimining xarakterli xususiyatlaridan yana biri shundaki, ba’zi hollarda unli bilan boshlanadigan so‘z undosh bilan tugagan so‘zdan keyin kelsa, vazn talabiga ko‘ra qo‘shib o‘qiladi. Masalan:

Kel-di-lar / ka-ra-may-lab / kul-ba-mich / ra-jo-non-lar, Har-bi-ri / si-jo-nim-din / ham-a-zi / z-meh-mon-lar. Tiy-ra-sho / mi-hij-ro-nim / rav-sha-net / ti-lar-kun-dek, Yuz-la-rin / o-chib-har-yon / ne-cha-mo / hi-to-bon-lar.

Aruz tizimidagi ikkinchi o‘lchov birligi rukndir. She’riyatda misralar ma’lum tartibda bo‘lganligi uchun, ular bir necha hijodan iborat bo‘laklarga bo‘lib talaffuz etiladi. Misraning ana shu bo‘laklari rukn deyiladi. Rukn arabcha so‘z bo‘lib, ustun ma’nosini ifodalaydi. Mazmun va shakl jihatdan uzviy bog‘langan tugal ikki misra bayt deyiladi. Baytning asl ma’nosi uy bo‘lib, go‘yo ikki misra bir she’riy uyni tashkil etadi. Uyning ustuni bo‘lganidek, she’riy baytning ham ustuni — ruknlari bo‘ladi. Rukn bittadan tortib besh hijogacha bo‘lishi mumkin. She’riy asarni o‘qish jarayonida har bir misradagi ruknlarni bir-biridan ajratish uchun qisqa pauza qilinadi. Masalan, Atoiy quyidagi baytini ruknlarga ajratib ko‘raylik:

Ul sanam kim, suv yaqosinda paritek o‘lturur, G‘oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo‘lur. Ul-sa-nam-kim / suv-ya-qo-sin-da / pa-ri-tek / o‘l-tu-rur, G‘o-ya-ti-no / zuk-lu-kin-din / suv-bi-la-yut/ sa-bo‘-lur.

Rukn aruz tizimida she’r vaznini tashkil etuvchi asosiy o‘lchov birligi sifatida asrlar davomida mustahkam qonunlashib ketgan. Shu boisdan ham, har bir asar ana shu ruknlar asosida yuzaga keluvchi muayyan vazn bilan o‘lchanadi. Ruknlar ma’lum qoidalar asosida o‘zgarmas tabiatga ega bo‘lganligi tufayli, so‘zlarni ham ana shu qoidalar asosida talaffuz qilishni taqozo etadi. Aruz tizimida rukn asosiy o‘lchov birligi sifatida g‘oyat muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, har bir o‘qiladigan asar oldindan ruknlarga ajratib olinadi. Zero, ruknlar takrori, bir tomondan, muayyan asarning vaznini aniqlab olish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, asarning ritmikasini, o‘ziga xos musiqiy tabiatini his qilishga imkon yaratadi. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi baytni ruknlarga — ritmik bo‘laklarga ajratib ko‘raylik.

Mastu bexudlik bila umrungni o‘tkazding darig‘, Ey ko‘ngul, mundin beri bo‘l bir nima hushyorroq.

Mas-tu-be-xud / lik-bi-la-um / rung-ni-o‘t-kaz / ding-da-rig‘, Fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-lun — V — - / — V — — / — V — — / - V -

Ey-ko‘-ngil-mun / din-be-ri-bo‘l / bir-ni-ma-xush / yo-r-roq Fo-i-lo-tun /fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-lun — V — — / — V — — / — V — — / - V -

Kuzatganimizdek, she’rda ritm-ohang baytdagi ruknlarni tashkil etgan cho‘ziq " — " va qisqa " V " hijolarning bir tekisda takrorlanishidan hosil bo‘lib, bu ohang o‘z navbatida rukn deb nomlangan hijolarning turli ritmik guruhlariga tayanadi. Ruknlar hijolarning miqdori va sifatiga (cho‘ziq-qisqaligiga) qarab sakkiz aslga bo‘linadi va ularning har biri maxsus nom bilan yuritiladi:

1. faulun — uch hijoli rukn: fa-u-lun;
2. foilun — uch hijoli rukn: fo-i-lun;
3. foilotun — to‘rt hijoli rukn: fo-i-lo-tun;
4. mafoiylyn — to‘rt hijoli rukn: ma-fo-iy-lun;
5. maf’ulotu — to‘rt hijoli rukn: maf-u-lo-tu;
6. mustaf’ilun — to‘rt hijoli rukn: mus-

taf-i-lun; 7. mutafoilun — besh hijoli rukn: mu-ta-fo-i-lun; 8. mafoilotun — besh hijoli rukn: ma-fo-i-lo-tun.

Mana shu sakkiz ruknning turlicha birikishidan bahrlar vujudga keladi. Bahrlar esa, aruz tizimidagi she'r o'lchovlarining asosi hisoblanadi. Ruknlar o'zgarishsiz takrorlansa, solim (asliy), ruknlarning takrorlanishida o'zgarishlar paydo bo'lsa tarmoq (far'iy) bahrlari hosil bo'ladi. Aruz tizimining bir-biriga yaqin vazn turkumlari bo'lib, bu turkumlar bahr deb nomlangan. Bahrlar asllarning va far'larning takroridan yoki bir-biriga aralashtirib olinishidan vujudga keladi. Bu haqda Alisher Navoiy „Mezon ulavzon“da shunday deb yozadi: buhereki ba'zisining takrori va ba'zisining tarkibi ba'zi bila hosil bo'lur, o'n to'qqizdur, ba'zi arabqa maxsus va ba'zi ajamga maxsus va ba'zi mushtarak "[1]. Hazrati Navoiy ta'kidlagan o'n to'qqizta bahr quyidagicha nomlangan: tavil, madid, basit, vofir, komil, hazaj, rajaz, ramal, munsarih, muzore', muqtazab, mujtass, sare', jadid, qarib, hafif, mushokil, mutaqorib, mutadorik. Bahrlar odatda baytdagi ruknlarning miqdori bilan birga aytildi. Masalan, hazaji musaddas — olti ruknli hazaj, hazaji musamman — sakkiz ruknli hazaj, ramali murabba' — to'rt ruknli ramal va hokazo. Demak, ramal, hazaj va boshqa bahrdagi bayt to'rt ruknli bo'lsa — murabba', olti ruknli bo'lsa — musaddas, sakkiz ruknli bo'lsa — musamman sanalib, vazn nomi bilan qo'shib aytildi. Masalan, ramali musaddas, ramali musamman kabi. Bahrlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, har bir bahrning o'z ichida bir necha tarmoqlarga bo'linib ketishidir. Masalan, ramal bahri 15 tarmoqqa va rajaz bahri 9 tarmoqqa, hazaj bahri 10 tarmoqqa va boshqa bahrlar ham shu tariqa bo'linib ketadi. Masalan, quyidagi ramal bahrining bir-biridan farq qiluvchi uchta tarmog'ini o'rganib chiqaylik.

1. Ramali musammani maqsur: Foilotun / foilotun / foilotun / foilun — V — — - V — — - V — — - V -
2. Ramali musammani mahbun: Foilotun / foilotun / foilotun / foilotun — V — — - V — — - V - — V -

## 3. Ramali musaddasi maqsur: Foilotun / foilotun / foilun -V — — -V- — - V -

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, aruz vazni bahrlari qanchalik ko'p va rang-barang bo'lmasin, o'zbek klassik adabiyotida eng koo'p qo'llanadigan bahrlar bu — ramal va hazaj bahrlaridir. Ayniqsa, ramali musammani mahzuf vazni mumtoz adabiyot namoyandalarining eng sevimli vazni hisoblangan. Shu boisdan ham g'azallarning katta qismi shu vaznda yaratilgan. Adabiyotshunos olim Anvar Hojiahmedovning ma'lumotlariga qaraganda, "Alisher Navoiyning „Xazoyin ul-maoniy“ lirik kulliyotidagi 3132 she'rdan 1156 tasi, jumladan, 2600 g'azaldan 1089 tasi, ya'ni 42 foizi mana shu vaznda bitilgan. Shu vaznda Boburning 113 g'azalidan 42 tasi, Muqimiyning 226 lirik she'ridan 117 tasi yozilgan. Boshqa shoirlar ijodida ham bu vaznda yaratilgan lirik she'rlarni ko'plab uchratamiz. Buning sababi mazkur vaznning o'ynoqiligi, jozibadorligida, insonning rang-barang ichki kechinmalarini ifodalash uchun qulaylidigidir "[2]. Aruz tizimidagi asarlar qaysi bahrda yozilganligidan qat'iy nazar, ularni maxsus tayyorgarliksiz o'qib o'rganishning, ayniqsa, ifodali o'qishning hech ham iloji yo'q. Maxsus tayyorgarlik deganda, biz shartli ravishda quyidagi qoidalarga amal qilishni nazarda tutdik:

1. Dastlab lirik she'r yoki epik asardan olingan matndagi arabiy va forsiy so'zlarning mazmuni lug'at yordamida aniqlanadi. Lug'atda muayyan so'zning bir necha ma'no qirralari ko'rsatilgan bo'ladi. O'rganilayotgan baytda (kontekstda) mazkur so'zning qaysi ma'nosi nazarda tutilganligi belgilanadi.
2. Matndagi notanish so'zlarning mazmuni oydinlashtirilgandan keyin har bir baytni sinchkovlik bilan o'rganib, uning nasriy bayonini tuzib chiqish maqsadga muvofiqdir. Chunki nasriy bayon baytdagi tashbehu tamsillar qobig'iga o'ralgan purma'no so'zlarning mazmunini ma'lum darajada anglab olishga yordam beradi.
3. Baytlar mazmuni ma'lum darajada o'rganilgandan keyin she'rning umumiyligi g'oyasi, shoirning maqsad va muddaosi, nima demoqchi ekanligi aniqlanadi. Bunda asarning tub mohiyatini talqin qiluvchi baytlarga alohida e'tibor beriladi.
4. Asarning g'oyaviy xususiyatlarini o'rganish barobarida, badiiy tasvir vositalariga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bunda tashbehu tamsil, majozu istiora kabi badiiy san'atlarning she'riy asardagi asosiy g'oyani yorqin ifodalashda muhim o'rin tutganligini tushunib olish ham maqsadga muvofiqdir.
5. Muayyan she'riy

asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari ma’lum darajada o‘rganilgandan keyin, endi uning shakliy tuzilishiga e’tibor qaratiladi. Masalan, o‘rganilayotgan g‘azal aruzning qaysi bahrida yaratilganligini aniqlash uchun, dastlab hijolarga va ruknlarga ajratib chiqiladi. She’rning ruknlar tartibi va chizmasini belgilash uni to‘g‘ri o‘qishga yordam beradi. 6. She’rni ifodali o‘qishda qisqa „V“, cho‘ziq „-“ va o‘ta cho‘ziq „~“ hijolar talaffuziga alohida e’tibor qaratish lozim. 7. She’rning shakliy tuzilishini o‘rganish jarayonida vazn talabi bilan biri ikkinchisiga qo‘silib ketadigan so‘zlarni belgilab chiqish ham she’rni to‘g‘ri va ifodali o‘qishni osonlashtiradi. Sharq xalqlari orasida qadim-qadimdan to‘g‘ri so‘zlash va fikrni chiroyli ifodalash masalalariga katta e’tibor qaratilgan. Til qoidalariga to‘la amal qilgan holda so‘zlash va yozish bilan bog‘liq fan „ilmi balog‘a“ deb, chiroyli, yoqimli so‘zlash va yozishni o‘rgatadigan fan sohasi esa, „ilmi fasohat“ deb atalgan.

### G‘azalning nasriy bayoni

Ayriliq azobiga shifo bo‘luvchi vasl qadrini hijron dardida kuygandan so‘ra. Yor labining qadriga ham yorning diydoriga tashna bo‘lganlar yetadi.

Labing sirlaridan so‘z ochmoqchi bo‘lsang, buni mendan o‘zgadan so‘rama, Bu pinhona so‘zni sirlardan voqif bo‘lgan odamdan so‘ra.

Ko‘zi yoshlilarning holini g‘ofil olomon qayerdan ham bilsin, Ko‘kdagi yulduzlar sayrini ham tunlarni bedor o‘tkazgan bemorgina biladi.

Fitnachi ko‘zlar jabrini chekkanlardan xabarsiz bo‘lma (oshiqlardan) o‘zidan bexabar mastlar bedodligini hushyor bo‘lgandan so‘ra.

Berilgan ma’lumotlardan so‘ng aruz vazni va barmoq vazni muqoyasa qilinadi.

O‘zbek adabiyotidagi eng ko‘p qo‘llanuvchi barmoq va aruz vaznlarining farqi

Barmoq vazni

Aruz vazni

1	Bo‘g‘inlarning ma’lum tartibda guruhanishi (turoqlanishi)ga asoslanadi	Cho‘ziq, o‘ta cho‘ziq va qisqa hijoar
---	--	---------------------------------------

		ning ma'lum tartibda guruhlanishiga asoslanadi
2	Bo‘g‘in - bir havo zarbi bilan aytildigan tovush yoki tovushlar birikmasi. Bo‘g‘inning asosini unli tovush tashkil etadi:  Men dun-yo-ni \\ nima qildim\\  O‘-zing yo-rug‘\\ ja-ho-nim.	Hijo - so‘zlarning sifatiy bo‘linishi.  Unda unli tovush hijo asosini doim ham tashkil etmaydi:  Nav-ba-ho ro\\ chil-di gul-lar\\, sabza bo‘l-di\\ bo-g‘-lar\\
3	Bo‘g‘inlarning miqdori muhim	Hijolarning sifati muhim.
4	Barmoq vaznida eng kichik ritmik bo‘linish - bo‘g‘in	Aruz vaznida eng kichik ritmik bo‘linish - harf

So‘ngra aruz vaznidagi eng kichik bo‘lak hijo haqida ma’lumot beriladi.

Hijo haqida ma’lumot

Hijo arabcha «bo‘g‘in» ma’nosini ifodalaydi. Hijolar 3 turga bo‘linadi:

1. Qisqa hijo - birligina qisqa unli (a, u, o‘, e, i) dan iborat yoki qisqa unli bilan tugagan ochiq bo‘g‘indir. Ochiq bo‘g‘in so‘z o‘rtasida yoki so‘z boshida kelishi va urg‘u olmasligi kerak. Masalan: da-la. Belgisi : V V

2. Cho‘ziq hijo - undosh bilan tugaydigan yopiq yoki cho‘ziq unli(o) bilan tugaydigan ochiq bo‘g‘in. Bunda ochiq bog‘in so‘z oxirida kelishi va urg‘u olishi talab etiladi. Masalan : bul-bul, gul-shan ; do-no, ze-bo. Belgisi : - -

«O» unlisi tabiatan cho‘ziq unli sanaladi, lekin vazn talabi bilan boshqa unlilar ham cho‘ziq talaffuz qilinishi mumkin. Masalan:

Ke- cha kel-gum\\ dur de-bon ul \\ sar-vi gul-ro‘ \\ kel-ma-di...

- v - - \\ - v - - \\ - v - - \\ - v -

«E» unlisiga e‘tibor beramiz. Bu hijoda «e» unlisi vazn talabi bilan cho‘ziq hijo hisoblanadi.

3. O‘ta cho‘ziq hijo - bu cho‘ziq «o» unlisi ishtirok etgan yopiq bo‘g‘in yoki qator undosh bilan tugagan bo‘g‘in. Masalan: «zor», «dor», «taxt», «sabr» kabi. O‘ta cho‘ziq hijo misra oxirida keladi, agar misra boshi va o‘rtasida kelsa, ikkita hijoga, bir cho‘ziq va bir qisqa hijoga, ajratiladi, masalan, «zo-r», «yo-r», «sab-r» kabi. Belgisi ikki xil ifodalanadi:

1. Misralar o‘rtasida: - v.

2. Misralar son‘gida ~

Masalan, kam uchrovchi munsarihi musamman bahrida:

Qay-si cha-man \| din e-sib \| kel di sa-bo\| yor- yor\|

- v v - \| - v - \| - v v - \| -v ~ \|

Muf-ta-i-lun \| fo-i-lun \| muf-ta-i-lun \| foilon

Hijolar haqida tushuncha berilgandan keyin aruzning keyingi birligi bo‘lmish rukn haqida ma’lumot berishga o‘tiladi.

### Rukn haqida ma’lumot

Rukn- aruzda hijolarning ma’lum tartibda birikishidan hosil bo‘luvchi birlik, ya’ni hijolar misrada ma’lum tartibda birikib, ruknni hosil qiladi. Masalan:

Ke-cha-kel-gum\| (1-ruk) dur-de-bo-nul\|(2-ruk) sar-vi-gul-ro‘\|(3-ruk) kel-ma-di\| (4-ruk).

Jami bir misrada 4 ta, keyingi misrada ham xuddi shunday 4 ta rukn bo‘lishi lozim. Bir ruknda hijolar soni 3, 4, 5 tagacha bo‘ladi (ke-cha-kel-gum, 4 ta hijo; kel-ma-di, 3 ta hijo).

Rukn 2 xil bo‘ladi: asl rukn va tarmoq ruknlari. Asliy ruknlari 8 ta. Bular quyidagilar:

No	Asl ruknlar	Paradigmasi (taqte'si)	Bahri
1	Fa-uv-lun	V - -	Mutaqorib
2	Fo-i-lun	V -	Mutadorlik
3	Fo-i-lo-tun	- V - -	Ramal
4	Ma-fo-iy-lun	V - - -	Hazaj
5	Mus-taf'-i-lun	- - V -	Rajaz
6	Ma-fo-i-la-tun	V-VV -	Vofir
7	Mu-ta-fo-i-lun	V V -V -	Komil
8	Maf'-uv-lo-tu	- - - V	-

Baytda ruknlarning miqdori, ruknlar tarkibidagi hijolarning miqdori teng va bir xil bo‘lishi barmoq she’r tizimida misralardagi turoqlar va bo‘g‘inlar teng bo‘lishi kabi muhimdir. Baytdagi ruknlar miqdoriga qarab mumtoz adabiyot namunalari quyidagicha tasniflanadi:

«Murabba»- baytda ruknlar soni to‘rtta bo‘lgandagi nomlanishi. Masalan:

Far-yod-kim\\ gar- du-ni dun\\ ( 2 ta rukn) - - - v - \\ - - - v - \\

Ay-lar yu-rak\\ bag‘-rim-ni xun.\\ ( 2ta rukn) - - - v - \\ - - - v - \\

Jami: 4 ta. Nomlanishi : murabba.

### **Aruz tizimidagi asosiy atamalar:**

1. Rukn (ustun) - baytda cho‘ziq va qisqa hijolarning ma’lum bir tartibda takrorlanib keluvchi bo‘lagi.
2. Vasl (ar.«ulanish»j -hijolarning bir-biriga ulashib ketish hodisasi.

3. Sabab - mustaqil cho ‘ziq hijo (bir cho‘ziq yoki ikki qisqa).

4. Zihof (o‘zgarish).

5. Sadr -birinchi misraning birinchi rukni.

6. Aruz - birinchi misraning oxirgi rukni:

7. Ibtido - ikkinchi misraning birinchi rukni.

8. Zarb -ikkinchi misraning oxirgi rukni.

9. Hashv - orada qolgan ruknlar

3. Metodlar.

.YANGI MAVZU Mavzu o‘qituvchi tomonidan slaydlar vositasida tushuntirib  
boriladi.

Muayyan tartibga solingan,ohang tugalligiga ega bo’lgan hissiy nutq”she’r” deyiladi. She’riyatning birinchi talabi-vazn.O’zbek she’riyatida yetakchi she’riy tizim barmoq sanaladi.Bunga Mahmud Koshg’ariyning ”Devonu lug’ot ut-turk”asaridagi to’rtliklar yaqqol misol bo’la oladi.

XI asrdan boshlab turkiy adabiyotga aruz she’r tizimi yetakchi vaznlardan biriga aylana boshladidi. Aruz she’r tizimi VIII asrda arab adabiyotida paydo bo’lgan,X asrdan fors adabiyotiga,XI asrdan turkiy adabiyotiga kirib kelgan.Uning asoschisi Xalil ibn Ahmad hisoblanadi.Xalil ibn Ahmad bu ta’limotdagi barcha atamalarni ijtimoiy turmushdagi narsa-buyumlarning nomidan olgan.Jumladan,aruz nomi ham Xalil ibn Ahmad yashagn joyga yaqin voha nomidan olingan. Aruz she’r tizimi qisqa va cho’ziq hijolarning she’r misralarida muayyan takrorlanishiga asoslanadi.Aruz tizimida sifatga katta e’tibor beriladi.Hijolardan-juzvlar,juzvlar birikuvida-ruknlar,ruknlarning aynan takrorida-bahrlar,bahrlardan esa vaznlar kelib chiqadi.

Aruzda 3xil hijo mavjud va ular quyidagicha belgi bilan ifodalanadi



Qisqa hijo                    V

Cho'ziq hijo                -

O'ta cho'ziq hijo        ~

Aruz she'r tizimida tahlil uchun bayt olinadi.Baytlar ruknlardan tashkil etiladi.Ruknlar esa juzvlarning turlicha birikuvidan tuzilib,ularga qaraganda yirikroq elementdir.Ularning soni 8ta,ya'ni 8 ta asl ruknlar deb nomlanadi.Ruknlar har qaysi baytdagi o'rniga ko'ra turlicha nomlanadi.

Sadr / hashv / hashv / aruz

Ibtido / hashv / hashv / zARB

Ushbu ruknlarning turlicha birikuvidan aruzning 19 ta bahri kelib chiqadi.Baytlar to'rttadan 36 tagacha rukndan tashkil topishi mumkin.To'rt ruknli baytlar-murabba',olti ruknli baytlar-musaddas,sakkiz ruknlilari-musamman,o'n ikkidan ortig'i mutatavvil (ko'p ruknli) deb yurutiladi.Sakkizta asllardan yettasining(maf'o'lotu ruknidan tashqari )aynan takroridan 7 ta bahr paydo bo'ladi.

t/r	Bahr nomi	Rukni	Paradigmasi
1	Mutaqorib	Faulun	V- - / V - - / V - -
2	Mutadorik	Foilun	-V- / -V- / -V-
3	Hazaj	Mafoiylyn	V- - - / V - - - / V - - -
4	Ramal	Foilotun	-V- - / -V- - / -V- -
5	Rajaz	Mustaf'ilun	--V- / - -V- / - -V-
6	Komil	Mutafoilun	VV-V- / VV-V- / VV-V-
7	Vofir	Mafoilatun	V-VV- / V-VV- / V-VV-

Bulardan tashqari 8 ta aslning aralash takroridan yana 12 ta bahr paydo bo'ladi.Ular aralash bahrlar deyiladi.Turkiy she'riyatda aralash bahrlarning 5 tasi faol qo'llaniladi.Ular : muzori',xafif,mujtass,munsarih va sare' bahrlaridir.Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon",Boburning "Muxtasar"asarlari aruz ilmiga bag'ishlangan asarlar sirasiga kiradi.Abdurauf Fitrat va Furqat ham ushbu she'r tizimi yuzasidan asarlar yaratishgan.

MUSTAHKAMLASH. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun "Chalkash ma'lumotlar jadvali"dan foydalilaniladi.Dars davomida olingan bilimlar mustahkamlanadi.Bu o'quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini o'taydi.

### **Xulosa**

Aruz tizimida 13 ta bahr keng qo'llangan. Turk adabiyotida 4 ta bahr faoldir: ramal, hazaj, rajaz, mutaqorib. O'quvchilar mana shu 4 bahrni bilib olsalar, o'qituvchi qo'ygan maqsadiga erishadi. Aruz vaznining maktablarda o'rgatilishi ketma-ketlikda, izchillik bilan olib borilsa, kutilgan natijaga erishiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o'rganish, - T.: O'qituvchi, 1995.
2. Hojiahmedov A. Navoiy aruzi nafosati, - T.: Fan, 2006.
3. Sariyev Sh, Matjonov S. O'zbek adabiyoti. Qo'llanma.
4. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi, - T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
5. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: Ta'lim-Media, 2019.
6. Yusupova D. Aruz alifbosi. – T.: Akademnashr, 2015.
7. Olimov S, Ahmedov S, Qo'chqorov R. Umumiyl orta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – T.: G'. G'ulom nashriyoti, 2019.

8. <https://fayllar.org>. Aruz vazni haqida maqola. 2022.
9. <https://fayllar.org>. Aruz tizimi: aruz haqida tushuncha. 2022.
10. <https://ndpi.uz>. Aruz va poetika asoslari. 2020.